

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

ISLOM BANK MOLIYA TIZIMINING O'ZBEKISTONDA JORIY QILINISHI

Pulatova Adolat Djaxangirshayevna

Institut " International School of Finance and Technology ", kafedra " Biznes Boshqaruv" oqituvchisi

Annotatsiya: Islom bank tizimi muslimmonlar dini ruhsat beradigan darajada moliyaviy munosabatlarga imkoniyat yaratib beradi. O'zbekistonda so'ngi yillarda islom moliya tizimini joriy qilish maqsadida tizimli islohotlar yo'lga qo'yilmoqda.

Kalit so'zlar: islom moliyasi, MDH, Eron, Saudiya Arabistoni, shariat kengashi

Hozirda islom moliyasi sektori yiliga 15% dan 25% gacha o'sib bormoqda, bu yo'nalishdagi institutlar esa jahonda \$2,7 trln dan ortiq aktivlarni boshqarmoqda. Islom moliyasining O'zbekistondagi o'rni qanday? O'zbekistonda «Islom bank ishi va moliyasi» tashkiloti (AlHuda) fikricha. MDH mamlakatlarida islom moliya sanoatining o'sishi boshqa davlatlarga qaraganda sekinroq, ammo bu mintaqada imkoniyatlarning ortib borayotgani tufayli jahon xalqaro bank sanoatining e'tiborini tortmoqda. MDH davlatlari hukumatlari ushbu sektorni rivojlantirish bo'yicha tashabbus ko'rsatsa, keyingi besh yil ichida islom banki ishi sezilarli darajada o'sadi.[1]

Hozirgi vaqtida Islom moliyasi eng yaxshi yo'lga qo'yilgan uchta davlat Saudiya Arabistoni, Eron, Malayziya ko'rsatkichlar ko'لامи bo'yicha global bozor hajmining 66 foiziga egalik qiladi.

Islom bank ishi shariat tamoyillari va qoidalariga asoslangan bank tizimidir. Islom bankingning asosiy tamoyillari foyda va zararlarni taqsimlash, foizlarni taqiqlash, pul ayirboshlash vositasi va qiymat o'lchovidir. Islom moliya institutlari o'z faoliyatini amalga oshirishda shariat tamoyil va qoidalariga hamda axloqiy tamoyillarga amal qilishlari shart.

Islom banki an'anaviy bankdan mijozlarga bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etishda axloqiy tamoyillarga amal qilish bilan ajralib turadi.

Islom bank ishi tushunchasi islom axloqiy normalari va qadriyatlarining ustuvorligini nazarda tutadi.

Islom banklarida ham mustaqil nazorat organi – Shariat Kengashi mavjud bo'lib, u bankning alohida mustaqil tuzilmasi hisoblanadi. Kengashning funksiyalari va mas'uliyati Bank ustavi va Islom banklari faoliyatini tartibga soluvchi Qozog'iston qonunchiligi bilan belgilanadi.

Shariat kengashining vazifalariga bank faoliyatini amalga oshirishda shariat tamoyillari va qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish kiradi. Islom bankidagi barcha bank jarayonlari va operatsiyalari Shariat Kengashi tomonidan tasdiqlanishi kerak. Shariat kengashi mahsulot va xizmatlarning shariat tamoyillari va qoidalariga muvofiqligini aniqlash bo'yicha yakuniy organ hisoblanadi.

Islom bankingning asosiy tamoyillari:

- Bank va mijoz o'rtasidagi hamkorlik (foyda va zararni taqsimlash);
- Bank Pul solish ob'ekti emas, balki ayirboshlash vositasi va qiymat o'lchovidir;
- Sharhnomalar predmeti va uning shartlariga nisbatan noaniqlikni taqiqlash (g'aror);
- Vaziyatlarning tasodifiy kombinatsiyasi (maysir) natijasida foyda olishni taqiqlash: qimor o'yinlari, pul tikish va lotin moliyaviy vositalar (derivativlar) bilan operatsiyalar;
- Shariat tamoyillariga muvofiq faoliyatning ayrim turlarini: tamaki, alkogol, quroq-

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

yarog‘ ishlab chiqarish, giyohvand moddalarni, shuningdek, pornografiya va qimor o‘yinlarini (harom) tarqatish bilan bog‘liq faoliyatni moliyalashtirishni taqiqlash;

- Birovning mulkini o‘zlashtirib olishni taqiqlash;
- Qarzni sotishni taqiqlash

Bugungi kunda islom banklari deyarli barcha an’anaviy bank operatsiyalarini amalga oshiradilar: joriy va jamg‘arma hisobvaraqlarini ochish, moliyalashtirish mahsulotlarini taqdim etish; kassa xizmatlarini, to‘lovlarni, mablag‘ o‘tkazmalarini, g‘aznachilik xizmatlarini va hokazolarni amalga oshirish, iqtisodiyotning turli sohalariga: ishlab chiqarish, savdo, qishloq xo‘jaligiga – shariat ruxsat bergen darajada sarmoya kiritish. Ammo islom moliya banking tamoyillarida ko’rsatilgan jihatlar bilan farq qiladi.

Islom moliyasi islom qatlami tomonidan qo’llab quvvatlanadi. Bugungi kunda islom moliyasi qisqa fursatda katta natijalar ko’rsatganligi bilan, boshqa davlatlarda ham keng tarqalmoqda. Bundan tashqari hatto Rossiya kabi davlatlarda ham islom banklari tashkil qilinmoqda. Islom moliyasi O‘zbekiston hududida ham tarqalib, Islom moliyasi yo’nalishlari universitetlarda ham o’qtilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Исламский банкинг <https://alhilalbank.kz/ru/page/islamic-banking>
2. О‘ZBEKISTONDA ISLOM BANKINI JORIY ETISH MASALALARI
<https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-isлом-bankini-joriy-etish-masalalari>
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/10/17/islamic-finance/>